

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 176 (965), 2023-yil 30-avgust, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



XALQIMIZNING BUYUK BUNYODKORLIK SALOHİYATI MUAZZAM INSHOOTLARDA NAMOYON

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-avgust kuni Toshkent shahridagi bunyodkorlik ishlari, turli sohalarda ishga tushirilayotgan yangi obyektlar bilan tanishdi.



va ish tartibi shuning amaliy ijrosi, deyish mumkin.

Shifo maskani hududi to'rt gektardan ortiq. Jami bir yarim ming kvadrat metr maydonga ega yettita bino barpo etilgan. Qurilish va jihozlashda xorijning ilg'or tajribasiga tayanilgan. Shu bois, arxitekturasida mukammal. Shoshilinch yordam, reanimatsiya, infeksiyali holatlar — barchasi inobatga olingan.

Milliy tibbiyot markazi, boshqa shifoxonalardan farqli ravishda, universal bo'ladi. Bu yerda jarrohlik, urologiya, transplantologiya, travmatologiya-ortopediya, ginekologiya, kardiologiya, nefrologiya, kardiologiya, endokrinologiya, kardiorevmatologiya, stomatologiya va boshqa bo'limlar tashkil etilgan. Jami 169 turdagi mingtadan ko'p ilg'or tibbiy asbob-uskunalar o'rnatilgan.

Markaz besh yuz o'ringa mo'ljallangan. Ambulator va stasionar tartibda ikki yuzdan ortiq tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Yiliga uch mingdan ziyod, jumladan, aorta-koronar shuntlash, estetik-plastik xirurgiya, artroplastika, organ va to'qimalarni ko'chirib o'tkazish kabi yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini bajarish quvvati mavjud. Markazda mamlakatimizning olis hududlaridagi bemorlarga masofadan tashxis qo'yish, davolash imkoniyati yaratilmoqda.

Muassasa faoliyatida Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarning yetakchi klinikalari bilan hamkorlik qilinadi. Chet ellik shifokorlar, o'zimizning xorijda malaka oshirgan mutaxassislarimizdan iborat jamoa — 250 nafar shifokor, 500 nafar o'rta tibbiyot xodimi faoliyat olib boradi.

Bunday imkoniyatlarga ega markaz mamlakatimizda birinchisi. Qoraqalpog'iston va viloyatlarda faoliyat yuritayotgan ko'p tarmoqli klinikalar u bilan bog'lanadi.

Prezident majmua hududidagi Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazida ham bo'ladi.

Bu markaz mazkur kasalliklarni davolash bilan birga mamlakatimizda otorinolaringologiya yo'nalishidagi ishlarini muvofiqlashtiradi. Bu yerda "Yuqori nafas yo'llari a'zolari fiziologiyasi va patologiyasi", "Eshitish va muvozanat a'zolari fiziologiyasi va patologiyasi", "Foniatriya va ronxopatiya" ilmiy laboratoriyalari tashkil etildi. Simulyatsion amaliy laboratoriya, jarrohlik xonalari va 60 ta o'rin-joylar zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlandi.

Davlatimiz rahbari ushbu markazlardagi qulayliklar bilan tanishdi, shifokorlar bilan suhbatlashdi. Soha mas'ullari bilan muloqotda ushbu markazlar yonida xorijiy tibbiyot instituti tashkil etish, kadrlar malakasini oshirish, kasalliklar profilaktikasini kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi qurilgan Respublika bolalar kutubxonasini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari faoliyatining ilk kunlaridan yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. 2017-yilda kitoblar nashr etishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha Prezident farmoyishi qabul qilingan edi. Kitobxonlarni rag'batlantirish yo'lga qo'yildi.

Bu siyosatning yana bir ifodasi sifatida yaqinda Respublika bolalar kutubxonasini yangilandi.

1907-yilda qurilgan tarixiy bino restavratsiya qilinib, zamonaviy jihozlandi. Bugun muassasa har jihatdan qulay, shinam va yorug'. Endi u nafaqat bolalar, balki kattalarning ham sevimli maskaniga aylanoqda.

Kutubxona o'zbek va jahon bolalar adabiyotiga oid 180 ming kitob fondiga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilayotgani xodimlar ishini yengillashtirib, kitobxon bolalarga qo'shimcha qulaylik yaratgan. Jumladan, tashrif buyuruvchilar maxsus ID-karta oladi. U orqali kitobxonlarni ro'yxatga olish, kitob olish va topshirish jarayonlari elektron tarzda tashkil etiladi.

Elektron kutubxonani rivojlantirish, video va audio resurslar fondini boyitish, foydali veb-kontentlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Audio kitoblarni tinglash xonasi tashkil etilgan.

Prezident ushbu sharoitlarni ko'zdan kechirdi, kitob o'qiyotgan va chet tillarini o'rganayotgan bolalar bilan muloqotda bo'ladi.

Davlatimiz rahbari kutubxonani maktablar bilan samarali bog'lab, 180 ming kitob fondidan ularni bahramand qilish, bu yerga ko'proq yoshlarni jalb etish zarurligini ta'kidladi.

Muassasada xalqaro konferensiya, seminar va boshqa tadbirlarni ham bevosita, ham onlayn o'tkazish imkoniyati yaratilgan. Hudud obodonlashtirilib, yangi qiyofaga kirgan. Mo'jazzgina amfiteatr tashkil etilgan.

Kutubxonaga avtotransport ajratish, yangi kitoblar sotib olish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Poytaxtimiz jamoat transportida metropolitenning o'rni juda katta. Uning qamrovini kengaytirish maqsadida, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yerusti metrosi vujudga keldi.

O'tgan yillarda bu ulkan loyihaning birinchi bosqichi va Sergeli yo'nalishi ochilgan edi. Joriy yilda ikkinchi bosqich — Qo'lyiqdan Sergeligaacha bo'lgan yerusti metrosi qurib bitkazildi.

Prezident ushbu transport inshootini borib ko'rdi, jamoatchilik vakillari bilan birga metroda yurdi.

— 2017-yilda bu loyihani boshlaganimizda ishonmaganlar ham bo'lgan edi. Mana, Xudoga shukr, yerosti va yerusti metro yo'llari bog'lanib, halqaga aylandi.

To'g'ri, og'ir bo'ladi. Lekin xalqimizga xizmat qiladigan, tarixda qoladigan yo'l bu. Odamlarimiz, farzandlarimiz bunda yurib, davlatdan rozi bo'lsa, niyatimizga yetgan bo'lamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mazkur ikkinchi bosqich doirasida 12 kilometr estakada yo'l va 7 ta bekat barpo etilgan. Bu oraliqdagi qatnov vaqti 15 daqiqani tashkil etadi. Bir kunda 40 mingdan ortiq yo'lovchiga xizmat ko'rsatiladi.

Umuman, bugun Toshkent metropolitenining jami uzunligi 70 kilometr dan oshdi. Shundan 38 kilometri 1977-yildan keyin bunyod etilgan bo'lsa, oxirgi 7 yilda 32 kilometr metro yo'li qurildi. Bekatlar soni 50 taga yetdi. Metroda yuruvchi kunlik yo'lovchilari soni 750 mingga yetishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, joriy yilda poytaxtimizga mingta avtobus olib kelindi. Natijada jamoat transportidan kuniga 1 million 400 ming nafargacha yo'lovchi foydalanmoqda. Bu shaxsiy transportlarga ehtiyojni, pirovardida ko'chalarda tirbandlikni kamaytirishda muhim omil bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari Sergeli tumanidagi Yangi Bunyodobod mahallasida bo'lib, sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Bu yerda 6 mingdan ziyod aholi yashaydi. 13 ta ko'p qavatli uy, maktab, bolalar va o'smirlar sport maktabida barcha sharoitlari yaratilgan. Mahallaning drayveri — xizmat ko'rsatish. Yaqinda maishiy xizmat shoxobchalari, tikuvchilik korxonasini o'z ichiga olgan ish markazi barpo etildi. Ularda mahalliy yoshlar foydali mehnat bilan band.

Prezident tikuvchilik korxonasidagi ayollar bilan suhbatlashdi. Uning rahbari ayollar tadbirkorligiga berilayotgan imkoniyatlar tufayli yangi uskunalar olgan, faoliyatini kengaytirgan.

— Biz nima uchun xotin-qizlar masalasiga alohida e'tibor qaratamiz? Chunki bu oilaga, farzandlarimizga, kelajak avlodlarimizga e'tibordir, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Fuqarolar yig'ini binosi zamonaviy qiyofaga ega. Bu yerda kutubxona, til o'rganish to'garaklari ham bor. Mahalla hududi obodonlashtirilgan. O'yin va sport maydonchalari ta'mirlangan. Ikki yilda mahallada birona jinoyat sodir etilmagan.

Mahalla raisi va faollari bilan suhbatda yoshlar bandlegini ta'minlash, madaniy tadbirlar va musobaqalar tashkil etib, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish haqida so'z bordi. Tuman rahbarlariga ijtimoiy ahaliyati loyihalarni ko'paytirish, kuz-gish mavsumiga tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati

Mustaqillik xalqimizga erkinlik, ro'shonlik olib kelganidek, har yili bu ayyomda yaxshilig-u yangiliklari ko'p bo'ladi. Bu yil ham barcha hududlarda iqtisodiy-ijtimoiy inshootlar ishga tushirilmoqda.

Ulug' ayyom oldidan davlatimiz rahbari poytaxtimizdagi ana shunday bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Prezidentning 2022-yil 27-apreldagi bo'yxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir farmonida sohani raqamli transformatsiya qilish, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirish chora-tadbirlari belgilangan edi. Jumladan, shu maqsadda Bo'yxona qo'mitasida Bo'yxona rasmiylashtiruv markazi barpo etildi.

Davlatimiz rahbari ushbu majmuani borib ko'rdi.

Bu yerda Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi, Masofaviy elektron deklaratsiyalash posti, "Call-markaz", Targetlash va xavflarni boshqarish bo'limlari tashkil etilgan. Axborot tizimi xorijiy davlatlar, mamlakatimiz vazirlik va idoralari, tashqi iqtisodiy faoliyat vakillari, aviakompaniyalar ma'lumotlari bilan integratsiya qilingan. Ishni tashkil etishda tadbirkorlarning takliflari ham inobatga olingan.

Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi amaldagi xaziraga nisbatan o'n barobar katta hajmi zamonaviy serverlar, kompyuter va boshqa zarur uskunalar bilan jihozlangan. Bu aloqa kanallari tezligini 5 barobarga oshirish va rasmiylashtiruv

vaqtini 2 barobarga qisqartirishni ta'minlaydi. Butun tizim kibernetikadan himoyalangan.

Masofaviy elektron deklaratsiyalash postida dastlabki bosqichda Toshkent shahri tadbirkorlari masofadan turib yuboradigan bo'yxona yuk deklaratsiyalarini tezkorlik bilan rasmiylashtirish yo'lga qo'yildi. Keyinchalik bu bilan respublikadagi barcha rasmiylashtiruv jarayonlarini qamrab olish rejalashtirilgan.

"Call-markaz" da bo'yxona organlarining 11-08 ishonch telefoni hamda qo'mita veb-sayti orqali kelib tushayotgan murojaatlarga javob beriladi.

Targetlash va xavflarni boshqarish bo'limi Jahon bo'yxona tashkiloti bilan hamkorlikda, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ochilgan. Bu yerda tezkor tuzilmalar tomonidan bo'yxonaning 50 ta, Jahon bo'yxona tashkilotining 3 ta axborot dasturi, 30 dan ortiq idoralar va xorijiy bo'yxonalarning ma'lumotlari tahlil qilinib, xavf-xatarlar baholalanadi va barcha bo'yxona postlari faoliyati masofadan boshqariladi.

Markaziy bo'yxona laboratoriyasi ham ekspertiza jarayonlarini qisqartirish va aniqligini oshirishga qaratilgan ilg'or uskunalar bilan jihozlandi.

Umuman, Prezident farmoni asosida soha raqamlashtirilishi natijasida bo'yxona rasmiylashtiruv vaqti o'rtaacha 2 barobarga qisqardi. Masalan, shu vaqt eksport yo'nalishida 2017-yilda 5 soat

42 daqiqa edi, 2023-yilda 30 daqiqani tashkil etmoqda.

Import tovarlarining 80 foizi va eksport tovarlarining 89 foizi soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilmoqda. Bo'yxona yuk deklaratsiyalarini sun'iy intellekt yordamida avtomatik rasmiylashtirish hajmi ham oshirilmoqda.

— Bu sharoitlar, natijalar, albatta, odamni quvontiradi. Lekin raqamlashtirish shunday jarayonki, bir joyda cheklanib qolmaydi. Sohada qilingan ishlardan ko'ra, qilinishi kerak bo'lgan vazifalar ko'p. Shuning uchun qulayliklarni muntazam oshirib borish zarur. Tizim faoliyatiga tadbirkorlar baho berishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Import tarkibining tahlili asosida mahalliy tadbirkorlarga taklif berish, bo'yxona hududida qayta ishlashni kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Xodimlarning moddiy-ijtimoiy sharoitlarini yaxshilab, tizimni korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish vazifasi qo'yildi.

Poytaxtimizning Yashnobod tumanida ikkita yirik shifo maskani — Milliy tibbiyot markazi hamda Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi barpo etildi.

Davlatimiz rahbari 2020-yil noyabrda ularning qurilishini kelib ko'rgan, bu yerda qanday imkoniyatlar bo'lishi lozimligi haqida ko'rsatmalar bergan edi. Muassasalardagi bugungi zamonaviy sharoit

TARAQQIYOT YO'LI

MA'NAVIYAT — MILLIY MUSTAQILLIKNING ENG ISHONCHLI POYDEVORI



Bugun o'zbek xalqi o'zining eng muqaddas, eng aziz bayrami — milliy davlat mustaqilligining muazzam o'ttiz ikki yilligi shukuh bilan yashamoqda, mehnat qilmoqda.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida milliy mustaqillik Vatanimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida butunlay yangi davmi boshlab bergan unutilmas voqea ekanini alohida ta'kidlandi. Darhaqiqat, o'tgan tarixan qisqa vaqt davomida elimizning fidokorona mehnati va qat'iyligi bilan milliy o'zligimiz, qadimiy tariximiz, ezgu qadriyat va an'analarimiz qayta tiklandi. Davlat va jamiyat hayotining tub asoslari o'zgarib, mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rni ega bo'ladi.

Milliy mustaqillikning naqadar e'zozli, qanchalar aziz ekanini mustabid tuzum zahmatlarini ko'rgan, uning og'ir iztiroblarini boshidan o'tkazgan, o'z erki va ozodligini yillar davomida orzu qilib kelganlar yaxshi biladi. Haqiqatan, o'zbek xalqi ne-nema mashaqqatlarni boshidan kechirmadi. Ayniqsa, sobiq mustabid tuzum davrida milliy davlatchilik asoslarining yo'q qilinishi, iqtisodiyotning xomashyoga yo'naltirilgan bir yoqlama rivojlanishi, olti million tonna paxta yetishtirish dardida shakllangan ekologik falokatlar, Orolning bir avlod ko'z odida qurishi — bularning bari biz uchun katta hayot sabog'i.

Mustabid tuzum sharoitida boy berilgan eng katta yo'qotishlar milliy madaniyat, milliy tarbiya jabhalarida yuz berdi. Turi bahonalari, millatchilik, aymachilik, soxta baynalmillilik kabi o'zbek xalqi uchun mutlaqo begona bo'lgan ayblar bilan minglab milliy ziyolilar jismonan va ruhan yo'q qilindi. Milliy qadriyatlar, an'analar, bayramlarimizga siyosiy tamg'alar qo'yildi.

Ana shu nuqtayi nazardan, 1991-yil o'zbek xalqi taqdirida, hech shubhasiz, olamshumul, asrlarga tatigulik sana hisoblanadi. O'zbek xalqi endi qaddini rostlay boshladi, o'z ozodligi, erkiga, o'z ovozi, tiliga ega bo'ladi. Butun jahon O'zbekistonni tanidi, uni tan ola boshladi.

Davomi 3-betda

DIL IZHORI



TUSHIMMI YO O'NGIM...
ISHONOLMAY QOLDIM

2

DIL IZHORI

TUSHIMMI YO O'NGIM...
ISHONOLMAY QOLDIMMa'murajon SULTONOVA,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi

2008-yili Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 9-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internati direktorligiga tayinlangandim. Bunga ham 15 yil to'libdi. Shu kungacha ta'lim sohasida turli yondashuvlar qo'llandi. Ba'zilar o'zini oqladi, ammo aksariyati qog'ozda qolib ketdi. Mana, endi ko'ksimizga shamol tegdi. Ortiqcha topshiriqlardan ozod bo'ldik, faqat vazifamiz bilan shug'ullanyapmiz. Aniq sa'y-harakatlarimiz samara bermoqda. Xo'sh, bu natijaga qanday erishdik?

Avvalo, jamoamiz bilan o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va orzu-maqsadini o'rganib, tegishli yo'nalish hamda maxsus tayyorlov sinflariga ajratib oldik. Bu yil bitiruvchilarning 11 nafari 150 dan yuqori ball to'plab, grant asosida talabalikka qabul qilindi. O'quvchilarning respublika miqyosidagi va xalqaro tanlovlarda yuqori o'rinlarni qo'lga kiritmoqda. Masalan, 2020-yili o'quvchimiz — iste'dodli yosh xonanda Olimaxon Tojiboyeva Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Yana bir shogirdimiz Muhammadzohir Abdumutalov matematika bo'yicha Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiada g'olibi bo'ldi. Mamlakat miqyosidagi turli fan olimpiadalarida 12 o'quvchimiz faxrli o'rinlarni oldi.

Ta'lim sifatini va pedagoglar malakasini oshirish, ilg'or xorijiy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, o'qituvchi qadri va maqomini ko'tarish, sertifikatlash bahosiga muvofiq ustozlar mehnatini bosqichma-bosqich ko'tarib borish kuni kecha o'tkazilgan yig'ilishning asosiy mavzusi bo'ldi. Namangan viloyati studiyasi orqali men ham videoselektorada qatnashib, davlatimiz rahbari bilan samimiy suhbatlashdim. O'zim direktorlik qilayotgan maktab erishgan yutuqlar, xususan, uch

yildan buyon bitiruvchilarning ketma-ket yuz foiz oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotganini aytdim. Shunda davlatimiz rahbari zaldan turib: "Sizga bugun davlat mukofoti beraman, yig'ilishdan chiqib qolgan farmonga imzo chekaman", dedi. Tushimmi yo o'ngim ekaniga ishonolmay, qattiq hayajonlandim. Mannun kayfiyatda, quvonch yoshi bilan minnatdorlik bildirdim.

Oradan hech qancha vaqt o'tmadi. Yig'ilish tugaganidan keyin oilam davrasida edim. Kech soat 21 lar atrofidagi telefonim ketma-ket jiringlay boshladi. Hamkasblarim, tanish-bilishlarim "Ma'mura opa, faxriy unvon muborak!" deya suyunchiladi. Tongga qadar tabriklarini qabul qildim. Haliyam qutlovlar davom etyapti. Subhidam qo'lminni duoga ochib, barchasi uchun Yaratganga shukrona aytdim. Ko'z o'ngimdan shu kungacha kechirgan shodon kunlarim, mashaqqatli yillar kinotasmasidek o'ta boshladi.

2015-yilda "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi" va 2020-yilda "Mo'tabar ayol" ko'krak nishonlarini olgandim. Taqdirimning kutilmagan tuhfasini qaragun, bugun "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi" degan yuksak unvonga munosib ko'ridim.

FAXR

AYOL ISHLI BO'LSA
BIR IMKONIYAT
tadbirkor bo'lsa, o'n imkoniyat

O'tgan yakshanba kuni kechqurun soat o'ndan oshganda mahallamiz raisi telefon qilib qoldi. Biron muammoli masala chiqdimikan, degan o'y bilan go'shakni ko'tardim. Raisimizning ovozdin xursandligini ilg'ab, mahallamizda yana bir yaxshi o'zgarish bo'lsa kerak, deb hol-ahvol so'zlashda davom etdik. Ammo hali xursandchilik oldinda ekanini xayolimga ham kelmabdi. Shundanmi oqsoqolimizning "Tabriklayman, davlat mukofoti bilan taqdirlanibsiz!", degan so'zlariga ishonib-ishonmay kalovlanib qoldim.

qolmaydi, u mahallada, jamiyatda ishbiarmonlikni rivojlantirishga intiladi.

Bugun bizning mahallamizda ham shunday ayollar safi kengayib bermoqda. "Ayollar daftari"da turgan yetti nafar opa-singlimiz chevarlik, bog'dorchilik, qandolatchilik, issixona yo'nalishida ish olib boryapti. Ular o'z oila a'zolari bandligini ta'minlash bilan cheklanmay, yana 20 ta ish o'rni yaratadi. Ushbu xotin-qizlarning ish tajribasi hayotga kirib kelayotgan qizlar uchun maktab bo'lyapti, desak mubolag'a emas.

Mahallamizning obodligini ta'minlash bo'yicha bajarilayotgan ishlar ham tahsinga loyiq. Bu borada "Tashabbusli budget" loyihasi yo'lga qo'yilgani juda qo'l kelyapti. Ushbu loyihada har gal kamida ikkita tashabbusimiz g'olib bo'lyapti. Buning uchun 2022-yil boshidan buyon 5,5 milliard so'm ajratildi.

Shular ortidan 24-maktabda yangi oshxonaga qurib foydalanishga topshirildi. Hududimizdan oqib o'tuvchi Sangzor daryosiga damba o'rnatilyapti. Bu aholining tomorqasini sug'orish imkoniyatini yaxshilaydi. 2023-yil drenaj va ariqlarni tartibga keltirish uchun 1,2 milliard so'm sarflanishi



Mahbuba MAMIROVA,
Jizzax shahridagi "Amir Temur"
mahalla fuqarolar yig'ini hokim
yordamchisi, II darajali "Sog'lom
avlod uchun" ordeni sohibi

Mahallamizning obodligini ta'minlash bo'yicha bajarilayotgan ishlar ham tahsinga loyiq. Bu borada "Tashabbusli budget" loyihasi yo'lga qo'yilgani juda qo'l kelyapti. Ushbu loyihada har gal kamida ikkita tashabbusimiz g'olib bo'lyapti. Buning uchun 2022-yil boshidan buyon 5,5 milliard so'm ajratildi.

To'g'risini aytсан, bunday katta mukofotni kutmagan edim. Vatanimiz va xalqimiz oldidagi kichik xizmatlarim shu qadar yuksak e'tirof etilganidan boshim ko'kka yetdi.

Bugun mahallamizda kambag'allikni va ishsizlikni bartaraf etish, aholi orasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Hamjihatlikda gap ko'p. Qolaversa, mahalladoshlarimiz ham davlatimiz tomonidan mahallabay ishlab borasida ilgari surilayotgan tashabbuslarni ro'yobga chiqarishda doimo yelkadosh bo'lmoqda.

Hamkorlikdagi bu sa'y-harakatlarimiz hayotda o'z mevasini beryapti. Jumladan, so'nggi ikki yilda mahallamiz hududida 75 ta kichik biznes subyekti faoliyati yo'lga qo'yildi. Bularning 15 tasi sanoat, 22 tasi qishloq xo'jaligi, 38 tasi xizmat ko'rsatish sohasida ish olib boryapti. Natijada 130 dan ko'proq yangi ish o'rni yaratildi. Meni, ayniqsa, ayollar o'rtasida tadbirkorlik, ishbiarmonlik muhiti tobora rivojlanib borayotgani juda ruhlaniradi. Chunki ayol ishli bo'lsa oila va farzandlar uchun bir imkoniyat, agar ayol tadbirkor bo'lsa, bu oila va farzandlar kelajagi uchun o'n imkoniyat. Zero, tadbirkor ayol faqat o'zi, bolalari, oilasini o'ylabgina

rejalashtirilgan. Bunda dehqon va fermer xo'jaliklariga, ekin maydonlari va 800 dan ziyod xonadonlar tomorqasiga uzluksiz suv kelishi ta'minlanadi. Natijada mahallamizning drayver soharalaridan biri — tomorqachilik yanada rivojlanadi, oilalar daromadli oshadi. Bundan tashqari, mahalladagi transformator va beton ustunlar ham yangilanyapti. Bu aholining energiya ta'minotini yaxshilash imkonini beradi.

Ayni paytda mahallani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilmasini yaxshilash, oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish bo'yicha ishlarni davom ettiryapmiz. Endilikda kichik tadbirkorlarimizni yirik loyihalarni amalga oshirishga undamoqchimiz. Chunki davlatimiz tomonidan bu soha rivojiga keng yo'l ochilyapti, bu borada barcha zarur imkoniyatlar yaratilyapti.

Oxirgi paytlarda mahalla ahlining mahallabay yo'nalishidagi ishlarga, ayniqsa, hokim yordamchilari faoliyatiga qiziqishi va ishonchi ortib boryapti. Buni aholimiz, ayniqsa, yoshlarimizning tadbirkorlik qilish istagidagi murojaatlari ko'payib borayotganidan ham bilish mumkin. Tabiiyki, xalqimizning bu e'tibori va ishonchi biz, mahalla faollarini yangi-yangi marralar sari ruhlaniradi, doimo izlanish va intilishga undaydi, kuch-quvvat beradi.

TAASSUROT

XAVOTIRGA O'RIN YO'QMI?

Mutassaddilar qish mavsumiga tayyorgarlik
yaxshi ekanini ta'kidlashmoqda

Hali yoz fasli poyoniga yetmay harorat bir oz pasayib, yog'ayotgan yomg'ir kuz yaqinlashayotganidan ogohlantirmoqda. Odamlar ko'nglidan bu yil ham elektr va gaz o'chib qolmaslik, degan xavotir o'tayotgani bor gap. Axir o'tgan yilgi anomol sovuq bu yil ham takrorlanmasligiga hech kim kafil bo'lolmasligi aniqda. Shunday ekan, kuzning ortidan mehmon bo'ladigan qishga tayyorgarlik qay daraja ekanini ko'pchilikka qiziq. Soha mutassaddilari bu borada hech bir xavotirga o'rin yo'qligini aytmog'la. "E-kon" loyihasi doirasida tabiiy gaz qazib chiqarish jarayonlari raqamlashtirilishi hamda hududlarda suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida yangi qurilmalar foydalanishga topshirilishi munosabati bilan G'uzor hamda Muborak tumanlariga tashkil etilgan press-tur davomida "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati mutassaddilari OAV vakillarini shunga ishontrishga harakat qildi.

Sahroda nima gap?

Dastlabki rejaga ko'ra, jarayon bilan yaqindan tanishish maqsadida G'uzor tumanidagi Eshonquduq hududiga taklif etildik. Avtomashinada anchagina yo'l bosilgach, aholi yashaydigan punktdan olib, kattagina adirkilardan iborat yo'lga ketib boryapmiz. Ahyon-ahyonda qum bo'ronlari ko'tarilib, cho'l havosi o'z ta'sirini sezdira boshladi. Keng sahro, adog'i ko'rinnmaydigan manzilda faqat neft-gaz sohasi xodimlariga maxsus mashinalarida har zamonada o'tib qoladi. Dalada yantoq va saksouvdan boshqa o'simlikni uchratish mushkul. Nihoyat sahro o'rtasida burg'ilash ishlari ketayotgan manzilga kelib to'xtadik. Atrofta o'ziga xos shovqin. Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga tegishli Sho'rtan konidagi 392-quduqda zamonaviy texnika yordamida burg'ilash ishlari bajarilmoqda.

"O'zbekneftgaz" AJ Rossiyaning "Gazpromneft" kompaniyasi bilan quduq burg'ilash va nazorat qilish, qurilish muddatlarini qisqartirish hamda sifatli ishlab chiqarishga topshirish bo'yicha hamkorlikda ish olib bormoqda, — deydi "O'zbekneftgaz" AJ Uglevodorodlarni qazib chiqarish departamenti boshlig'i Aziz Rahmonov. — Ayni paytda ushbu quduqda burg'ilash ishlari "Gazpromneft" mutaxassislari bajarilmoqda. Quduq chuqurligi 3 ming 200 metrgacha yetkaziladi. Buning uchun oldin 80-90 kun sarflangan bo'lsa, xorijlik mutaxassislar 50 kundan ortiqroq vaqt ichida belgilangan ishni yakuniga yetkazishni reja qilgan. Xususan, uch kundayoq quduqning 700 metrga yaqin qismi burg'ilandi. Dastlabki qatlamdan o'tish bir oz oson kechishi mumkin, ammo keyingi bosqichlar ham tezkor bajarilishi kutilmoqda. Mahsuldor qatlamni sifatli ochish va quduqni kavlash ishlari muddatini qirq foiz qisqartirish rejalashtirilgan. Bu jarayonda mahalliy mutaxassislar malakasini oshirish ham maqsad qilingan.

Keyingi manzil tomon yo'lga davom etarkanmiz, bir muddat konchilar uchun maxsus shiyponda to'xtab, "O'zbekneftgaz" AJ rahbari Bahodir Sidiqovdan zarur ma'lumotlar olish harakatida bo'ldik.

— Bugungi kunda sohada keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda, — deydi Bahodir Sidiqov. — Jumladan, quduqlarni burg'ilash vaqtini qisqartirish, zaxira konlarni ko'paytirish maqsadida ko'pgina xorijiy kompaniyalarni hamkorlikka jalb etganmiz. Hozir Ozarbayjon, Rossiya, Xitoy kabi davlatlarning yetakchi korxonalarini ish olib bormoqda. Aholiga zarur gazni o'z vaqtida yetkazib berish, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarini va muassasalarning gazga bo'lgan talabini qondirish harakatidamiz.

"O'zbekneftgaz" rahbari gaz ta'minotida o'tgan yildagi kabi uzilishlar bo'lishi borasidagi xavotirlarni aritishga urindi:

MUBORAK GAZNI QAYTA ISHLASH ZAVODI MAMLAKATIMIZDAGI YIRIK KORXONALARDAN BIRI. PRESS-TURNING IKKINCHI KUNI USHBU ZAVODDA BO'LDIK. SHU KUNI LOYIHA QIYMATI 60 MILLIARD 186 MILLION SO'M BO'LGAN, GAZDAN OLTINGUGURT AJRATIB OLADIGAN 5-SEX ISHGA TUSHIRILDI.



boshqa davlatlarni bilmalol raqobatlasha oladi. Misol uchun, yaqinda ming tonna shunday mahsulotni Estoniyaga sotdik. Yana qiziqish bildirib, o'n ming tonnaga buyurtma bergan. Bu sifat yuqoriligidan dalolat beradi. Shuningdek, Gruziyadan ham talab tushmoqda. Tez kunda ular bilan kerakli shartnomalar tuziladi".

Suhbat yakunida "O'zbekneftgaz" AJ rahbari gaz va elektrdan foydalanishda aholida tejamkorlik madaniyatini shakllantirish lozimligini qayd etdi.

"E-kon" loyihasi amalda

Keyingi manzilda jurnalistlar uchun "E-kon" loyihasi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish imkoniyati yaratildi. "E-kon" loyihasi doirasida Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli Sho'rtan konidagi 20-, 24-gaz yig'uv punktlariga tegishli quduqlar ko'rsatkichlarini onlayn kuzatish jarayoni bilan tanishdik.

— Avvallari kuzatuv natijalari qog'ozda qayd etilib, barchasi qo'lga bajarilardi, — deydi muhandis-operator Maqsud Jumayev. — "E-kon" bu borada ancha qulay. Shu bilan birga, vaqt va mablag' tejalmog'la. Hozir o'ttizga yaqin quduqimizda onlayn kuzatish imkoniyati mavjud. Bugun sinov ishlari boshlangan. Keyinchalik bu to'liq tartibda joriy etiladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, "E-kon" loyihasi, asosan, to'rtta yo'nalishda amalga oshirilishi belgilangan. Birinchisida quduqlarda bosim va harorat o'lchov vositalari o'rnatiladi, ikkinchisida tabiiy gaz sarfini o'lchash imkonini yaratish maqsadida gaz yig'uv joylarida dastlabki tayyorlash qurilmalari quriladi, uchinchi bosqichda dasturiy ta'minot ishlab chiqilib, joriy etiladi. Yakunda muhandis-operator lavozimi joriy etiladi.

Ushbu amaliyotlar to'liq bajarilgach, 1500 ta quduqda bosim va harorat o'lchov vositalari o'rnatilib, onlayn tarzda ma'lumot yig'ish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, 80 ta yig'uv joyida tabiiy gaz tayyorlash va sarfini o'lchash qurilmalari o'rnatiladi. Operatorlar faoliyati samaradorligi oshirilib, barcha qurilma va o'lchov asboblardan olinayotgan ma'lumotlarni

tahlil qilish va boshqarish uchun yagona dasturiy ta'minot ishlab chiqiladi.

Pilot loyiha doirasida Sho'rtan, Muborak va vodiylaridagi neft va gaz qazib chiqarish boshqarmalarida bosim o'lchovchi 203 ta, harorat o'lchovchi 110 ta va 11 ta aloqa chiqaruv vositasi o'rnatiladi. Shuningdek, sentyabr oyida Janubiy Tandircha, Sho'rtan, Sharqiy Berdax, Dengizko'l, Somontepa, Tegirman konlariga bosim o'lchovchi jami 666 ta va harorat o'lchovchi 333 ta vosita qo'yilishi rejalashtirilgan.

Yana bir yangi loyiha
ishga tushirildi

Muborak gazni qayta ishlash zavodi mamlakatimizdagi yirik korxonalaridan biri. Press-turning ikkinchi kuni ushbu zavodda bo'ldik. Shu kuni loyiha qiymati 60 milliard 186 million so'm bo'lgan, gazdan oltingugurt ajratib oladigan 5-sex ishga tushirildi.

Loyiha natijasida mavjud qurilmalarni ta'mirlash davrida zavod qabul qiladigan tabiiy gazning qisqarishi oldi olinadi. Gaz qabul qilish kamaymagan holda ta'mirlash ishlari bajariladi.

Press-tur davomida olgan xulosamiz shu bo'ldiki, aslida gaz xonadonimiza yetib kelguncha uning ortida qanchadan-qancha zahmatli mehnat yotadi. Bu yo'lga juda ko'p mablag' sarflanyapti. Soha qanchalik modernizatsiya qilinsa, iste'molchilar tejab-tergasa, shunchalik yaxshi. Zero, barchamiz uchun tabiiy boylik hisoblangan gazdan nafaqat sizu biz, balki avlodlarimiz ham foydalanishga haqli.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

TARAQQIYOT YO'LI

MA'NAVIYAT - MILLIY MUSTAQILLIKNING ENG ISHONCHLI POYDEVORI

Boshlanishi 1-betda

Qahramon QURONBOYEV,
siyosiy fanlar doktori,
professor
Abdualil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Ayniqsa, so'nggi olti-yetti yil davomida yurtimizda ro'y bergan va bugungi kunda shiddat bilan davom etayotgan tub o'zgarishlar, xalq manfaatini yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar bir tomondan xalqimiz, boshqa tomondan dunyo hamjamiyati tomonidan xursandchilik bilan kutib olinayotganidan darakdir. Eng muhimi, barcha sohalarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bugun o'zining real natijalarini ko'rsatmoqda. Xalqimizning mamlakat rahbari tomonidan olib borilayotgan va chuqur o'ylangan strategik vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan faoliyatlar roziligi, kelajakka bo'lgan kuchli ishonch — bu, eng katta yutuqimiz.

Mustaqillik yillarida biz erishgan eng zalvorli muvaffaqiyatlarimizdan biri, shubhasiz, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi natijalarimizdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi yillardagi barcha yutuq va muvaffaqiyatlarimiz silsilasida ma'naviyat va ma'rifat sohasining ulushi juda katta.

Ta'bir joiz bo'lsa, ma'naviyat bugun jamiyat hayotini yanada barqarorlashtiruvchi, milliy taraqqiyotni ta'minlovchi, turli millat va elat vakillarini yagona maqsad — yangi O'zbekistonda barpo etishga yo'naltiruvchi mayqoq, xalqimizni bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda tobora ko'payib, urchib borayotgan ko'plab tahdid-u xatarlardan asrab qoluvchi fenomen hodisaga aylandi. Bekorga mamlakat rahbari "Hech qachon unutmasingiz kerak: ma'naviyat — bu, avvalo, insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi euzu intilishlar, ibratli fazilatlaridir. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat — jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi", deb ta'kidlamagan edi.

Ha, haqiqatan, ana shu euzu intilishlar va ibratli fazilatlar mamlakatni kuchli, jamiyatni yanada barqaror, odamlarni mas'uliyatli, irodali, axloqan yetuk etib shakllantiruvchi buyuk xalq hisoblanadi. Bugun ma'naviyat aslida yuqorida zikr etilgan qarorda ta'kidlangan "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan shiorni ijtimoiy harakatga aylantiradigan, mutlaqo xalq manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar jarayonini yanada tezlashtiradigan omilga aylandi.

Yana ham boshqacharoq aytdigan bo'lsak, ma'naviyat faqat tarbiya, odamlarga pand-nasihat qiladigan soha emas. Ma'naviyatning ijtimoiy funksiyalari tobora kengayib borayotganini ham e'tiborga olish lozim. Bugun ma'naviyat iqtisodiyot sohasida halollik, rostlik, xalq mulkini muhofaza etuvchi, ijtimoiy sohada aholi hayotini obod etuvchi, ta'lim sohasida jamiyatni yanada insoniyashtirishga, kishilar qalбини poklantirishga xizmat qiladigan, siyosat bo'limida kishilar ijtimoiy ongiga tinchlik, ozodlik urug'ini sepuvchi benazir kuchga aylandi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin, ma'naviyatning vazifalari tobora kengayib bormoqda. Uningiz endi na kuchli mamlakatni, na barqaror jamiyatni va na yuksak e'tiqodli, axloqan pok insonlarni tarbiyalab bo'ladi. Masalanan, yana boshqa jihatiga ham e'tibor berish lozim. Gap shundaki, bugungi shiddatli dunyoda manfaatlar kurashi tobora kuchayib boryapti. Turli xatarli mafkuralar va g'oyalarni mamlakatlar va millatlar bir-biriga qarshi qo'ymoqda. Jahoniy globallashuv esa insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga, kutilmagani muammolarni ham qalashtririb tashlamoqda. Mubolag'asiz aytish mumkin, bugun boshariyat katta xavf ostida qolmoqda. Buni ko'rmaslik va sezmaslik aslo mumkin emas.

Ana shunday tahlikali zamonda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda, Internet tizimida bugun tarbiya sohasiga, ma'naviyat va ma'rifatga keraksiz jabha, deya qarovchilarning borligini biz mavjud tahdidlarni ko'rmaslik, kelajakni tasavvur eta olmaslik, deb bilamiz. Nima emish, "shaxs tarbiyasiga aralashish uning erkinligini cheklash" emish. Shu o'rinda mamlakat rahbarining quyidagi fikrlariga quloq tutishni tavsiya etgan bo'lardik: "Afsuski, hali oramizda milliy g'oya va ma'naviyatning mohiyatini to'liq anglab yetmagan, "ma'naviyat o'zi kerakmi-yo'qmi?", deb yurganlar ham bor. Milliy g'oya deganda eski sovet mafkurasi xayoliga kelirib, "labiga uchquq tashadiganlar" ham yo'q emas". Endi o'sha "ma'naviyat bizga kerakmi", deganlarga ba'zi fikrlarimizni aytasak. Ma'naviyat va ma'rifatning jamiyat va davlat manfaatlarini, inson kamoloti uchun nechoqliq zarur ekani — bu aksioma. Ammo masalanan bugun ba'zi hollarda keskin tus olayotganini e'tiborga olsak, ma'naviyatsiz endi na Yangi O'zbekistonda va na Uchinchi Renessansni barpo etish mushkul ekanini anglash davri keldi, deb o'ylaymiz. Xo'sh, ma'naviyat bugun nima uchun kerak?

Birinchidan, ma'naviyat kishilarni fikriy va ma'naviy mudroqlikdan qutqaradi. Ayrim odamlarda ma'naviyat sodir bo'layotgan



voqea-hodisalarni tahlil eta olish ko'nikmasi mavjud emasligini, bu esa ularda yuz berayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini teran anglashga xalaqit qilayotganini sezish mumkin. Nazarimizda, bu narsa o'sha odamlarda fikrsizlik holatidagi kemtiklik tufayli sodir bo'lyapti.

Ma'lumki, fikr arabchadan g'oya, aql, o'y, mulohaza degan ma'no bildiradi. Fikr yuritish biror xulosaga kelish uchun narsa va hodisalarni taqqoslash, o'ylash, mulohaza qilish, xulosa chiqarishdir. Shuningdek, fikr hayot, jamiyat, tabiatni tushunish yo'sini, dunyoqarash, maslakka erishish yo'lidagi muhim bosqich hisoblanadi.

Fikrlash insonga xos xususiyat. Har bir shaxs fikrlaydi, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga baho beradi, o'z faoliyatini belgilaydi, xulosa chiqaradi. Bir so'z bilan aytganda, inson boshqa jonzorlar dunyosidan o'z fikriga ega bo'lgani bilan ajralib turadi. Fikrsiz insonni odatda asosan, hissiyot boshqaradi.

Bu esa o'sha insonning boshqalar fikri bilan faoliyat ko'rsatishiga undaydi. Ya'ni fikrsiz kishi aslida fikr qaralimiga uchragan odam. Fikr va ma'naviyat qaramlik — kishilar fikri, tafakkuri ustidan muayyan g'oyalarning hukmron mavqega egaligini, insonning sodir bo'layotgan voqealar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni mustaqil baholash imkoniyatidan mahrum bo'lganini ifodalaydigan tushuncha hisoblanadi.

Fikrsizlik insonni tafakkur qulligiga olib boradi. Ma'naviyat o'sha fikrsizlik holatini bartaraf etadigan kuchdir. Aslida, olomonlik va johillikning mavjudligi ham fikrsizlik natijasidir. Shu ma'noda, fikrsizlikni ma'naviy o'lim, deiysh mumkin. Ma'naviyat kishida o'zini o'zi boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi, har birimizda tanqidiy tahlil qilishga keng imkoniyat yaratadi.

Shu ma'noda, biz bugun Uchinchi Renessans poydevorini qurishga kirishar ekanimiz, uning ikki muhim jihati — yoshlarda mantiqiy fikrlash va yuksak axloqiy sifatlarini shakllantirishga e'tibor berishimiz juda muhim. Qotib qolgan eski fikrlar, bir qolipdagi qarashlar, kimgindir nuqtayi nazari asosida qabul qilingan xulosalar aslida fikriy qaramlik, ma'naviy mudroqlikdan boshqa narsa emas.

Ikkinchidan, ma'naviyat bizga insonni axloqiy tubanlikdan qutqarish uchun zarur. Agar ma'naviyat va axloq uyg'unligiga erishmas ekanimiz, bu boradagi barcha qarashlarimiz, xatti-harakatlarimiz zoye ketaveradi. Shu o'rinda "Garbning o'limi" asaridagi quyidagi iqtibosni juda o'rinni, deb bildik: "Iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy, siyosiy, ilmiy va texnologik taraqqiyotning yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan G'arb tamadduni yangi mingyillikning boshiga kelib, tarixiy rivojlanishning g'oyat ziddiyatli va murakkab bosqichini boshidan kechirayotgani, azaliy qadriyatlar o'rini faqat shaxsiy manfaat, aysh-ishrat, huzur-halovat mayllariga yo'g'rilgan "yangi axloq va e'tiqod" egallayotgani, axloqiy qadriyatlar huquqiy me'yorlar bilan almashirilayotgani, bir so'z bilan aytganda, G'arb tamaddunining demografik, milliy-etnik hamda ma'naviy asoslari yemirilayotgani, hatto Amerikadek qudratli davlat ham davr tahdidlariga dosh bera olmayotgani tobora yaqqol ko'zga tashlanmoqda. G'arb mamlakatlarini hayotining turli sohalarida yuz berayotgan jarayonlarni xolisona tadqiq etayotgan olim-mutaxassislar asrlar mobaynida G'arb davlatlari taraqqiyotini belgilab bergan liberalizm ta'limoti zamon talablaridan ortda qolayotgani, g'arbona individualizmning ta'sirida jamoaviy mas'ullik

MARGENALLIK HOLATIDA U YOKI BU SHAXS "AROSATDA" QOLADI. JAMIYAT, OILA, MAHALLA TA'SIRIDAN CHIQQISH ESA MARGENALLIK HOLATIGA TUSHGAN SHAXSDA BEPARVOLLIK, UQUVSIZLIK, IJTIMOIY HAYOTDAN BEGONALASHUVNI YUZAGA KELTIRADI. BUNDAY HOLATGA TUSHGAN SHAXSNING ASOSIY "XUSUSIYAT" JAMIYAT MUAMMOLARIGA BEFARQLIK, SUSTLIK, TEVARAK-ATROFIDA SODIR BO'LAYOTGAN VOQEA-HODISALARGA DAXLDORLIK HISSINING SUSAYISHI, QARORLAR QABUL QILISHDA NO'NOQLIK VA HAFSALASIZLIKDA KO'RINILADI. BUNDAYLARNI QALBI SHIKASTLANGANLAR, DEYISH HAM MUMKIN. BU ESA JAMIYAT UCHUN XAVFLI.

barham topayotgani, jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy tabaqalashuv xatarli tus olayotgani, erkinlik — mas'uliyatsizlikka, pliyuralizm esa — turli xalqlar qadriyatlarining qo'shuviga olib kelayotgani, sirasini aytganda, G'arb tamadduni g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy jihatdan boshi berk ko'chaga kirib qolayotganini ta'kidlamog'dalar".

Darhaqiqat, bugun o'z axloqiy qadriyatlariga, milliy an'analarga befarqlik bilan qarayotgan har qanday davlat yoki millat — xoh u katta bo'lsin, xoh kichik — xuddi chirmovqudek o'rab kelayotgan mafkuraviy tahdidlar, g'oyasizliklar oldida o'z bo'lib qolmoqda. Ana shuning uchun ham bugun mamlakatimiz rahbari milliy axloqimizni buzishga, milliyligimizga mutlaqo begona bo'lgan zarari g'oyalarni, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, "chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, mur'akab bolalarimizning pokiza qalbi va yurg'akiga kirib kelayotgan tahdidlardan hayalganish butun jamiyatning vazifasiga aylanganini ta'kidlamog'dalar".

Yuksak ma'naviyatimizning o'q ildizi axloq hisoblanadi. Agar bugun ma'naviyat va ma'rifat to'g'risida gapirar ekanimiz, aslida bunda biz yuksak axloqiylikni gapirgan bo'lamiz. Axloqiylik — bu, eng avvalo, real hayotda har bir insonning o'z burchini bajarishi, vijdon azobisiz yashashi, har bir harakatida o'z shaxsiy va jamoaviy mas'ullik hissini sezish hamda unga amal qilishdir.

Axloqiylik inson tomonidan o'zini go'zal odob va xulq bilan bezash, ziyonatlashdir. Axloq tarbiya, bilim olish, madaniyatli bo'lish, mas'uliyatni his etishdan tortib, to jamiyatda beadablikka yo'l qo'ymaslik, nafsi jilovlash, o'zgal qalbiga ozor bermaslikkacha bo'lgan o'ta murakkab bosqichlarni bosib o'tish natijasidagina shakllanishi mumkin.

Shuning uchun ham biz ma'naviyat to'g'risida fikr yuritir ekanimiz, avvalo, xayolimizda, ongu shuurimizda axloq fenomenini turadi. Ma'naviyatimizning yuksakligi axloqimizning darajasi bilan o'lchanadi. Bugungi tez sur'atda rivojlanib borayotgan davrda ayrim kishilarda moddiyatparastlik sifatlarini tobora kengayib borishi, jamiyat manfaatlarini mensimasdan, o'z "individualizmi"ga erk berilishi, milliy qadriyatlarini ochiqdan-ochiq mensimaslik, nafs qulligiga aylanishlar — bularning bar aslida axloqsizlikning, demakki, ma'naviyatsizlikning eng zamonaviy ko'rinishlaridir.

Bugun, ayniqsa, ayrim yurdoshlarimizda oson yo'llar bilan boylik orttirish, nafs iskanjasiiga tushib qolishdan ham ko'rqmaslik kabi illatlar ko'payib borayotganini tan olishimiz lozim. Axloqsizlik nafsnig hal

poklanmagani, jilovlanmagani va intizomli emasligidan darakdir. Bu borada Hakim Termiy shunday deydi: shaytonning bir soat ichida halok qilganini yuzta och arslon bir suruv yo'q ichida qila olmas. Nafsnig bir soat ichida odamga qiladigan vayronlik ishini esa shayton qila olmas.

Uchinchidan, ma'naviyat bizga O'zbekiston jamiyatida shijoatli, g'ayratli yoshlarni tarbiyalash va shakllantirish uchun kerak. Biz bugun yangi O'zbekistonda barpo etishga ahd qilganmiz. Bu yo'lida talay ishlar bajarildi. Yoshlikka xos shijoat, jo'shqinlik va mardlikni, ezu orzu-intilishlarni amaliy harakatga aylantirib, salmoqli natijalarga erishmoqdamiz.

Davlatimiz rahbari o'zining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida shunday yozadi: "Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek oiljanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvar adib va olimlar mashhur ilmiy kashfiyotlarini, o'lmas badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz".

Hech shubhasiz, bugun o'sha buyuk ajdodlarimizning munosib merosxo'rlari, izdoshlari yetishib kelmoqda. Ular jahon ilm-fan, madaniyat va sport maydonlarida o'z Vatani nufuzini oshirishdek sharaffi vazifalarni munosib ado etmoqda. Bundan barchamiz iftixor etamiz. Ana shu yuksak ehtiromlarga sazovor ishlarni faqat va faqat metin irodali, shijoatli va albatto, ma'naviyati boy yoshlarga bajara oladi. Jahon ilm-fan, madaniyat, sport musobaqalariga chiqqan har bir yosh yigit-qiz ko'z oldida eng avvalo, albatto, o'z ona Vatani, uning muqaddas tuprog'i, jondan aziz qishlog'i, mahallasi turadi. Axir bu ma'naviyat bo'lmasdan nima?

Ayni paytda hali bu borada bajarishimiz lozim bo'lgan qator muammolar mavjudligini ham yodda tutish kerak. Befarkar, dangasalik, amaliyotparastlik, huzur-halovatin afzal bilish, jamiyat qoida-me'yorlariga amal qilmaslik kabi holatlar, afsuski, jamiyatning yanada tezroq taraqqiy etishiga xalaqit qilmoqda. Aks holda, 2023-yilgi oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida talabgorlarning qariyb yarmi 56,7 foizdan kam ko'rsatkichga erishganini qanday tushunish mumkin?

Nazarimizda, ana shu salbiy holatlardan qutqilishning eng samarali yo'llardan biri inson ma'naviyatining eng muhim sharti bo'lgan shijoat ko'rsatish amaliyotidir. Shijoatli odam

shunday kishiki, o'zini ulug' va og'ir, mas'uliyatli ishlarni bajarishga tayyorlaydi, ulug'lik va sardorlik darajasiga o'sib yetish uchun ko'nglini jaf va alamlar yukini to'liq safarbar targ'ib qiladi.

Tom ma'nodagi ma'naviyat har birimizdan g'ayratni, g'ayratlikni ham talab qiladi. G'ayratlik insonning biror faoliyatini amalga oshirishdagi shijoati, o'z kuch va imkoniyatlarini to'liq safarbar etish, mehnatni samarali tashkil qila olish qobiliyatini anglatuvchi tushuncha hisoblanadi. Xo'sh, g'ayratli odamlarning eng muhim sifatleri nimalardan iborat? Nazarimizda ular quyidagilardan tashkil topadi: birinchidan, bunday kishilar maqsadga erishmaguncha tinmaydi, ikkinchidan, erishilgan natija bilan chegaralanmaydi, uchinchidan, har qanday ishni avvalgidan ham yaxshiroq bajarishga harakat qiladi, to'rtinchidan, strategik va qiyin maqsadlarni ko'zlaydigan, beshinchidan, yangi va yanada yuksak natijalarga erishib, ishni astoydil va sidqidildan olib boradiganlardir.

To'rtinchidan, ma'naviyat biz uchun bugungi O'zbekistonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tahlil qilish, ulardan zarur xulosalar chiqarish uchun ham juda zarur. Ta'kidlash lozimki, keyingi yillar mamlakatimiz tarixida sezilari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga juda boy bo'ladi. Mamlakat va jamiyat hayotini isloh qilishda ko'plab konseptual-nazariy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Barcha sohalarida, ayniqsa, jamiyat siyosiy tizimidagi o'zgarishlar har tomondan xalqimiz ijtimoiy hayotini ijoiy tomonga o'zgartirayotgan bo'lsa, bo'lak tarafdin va jarayonlar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmog'da.

Ana shu masalalarni xalqimizning keng ommasi ijtimoiy ongiga yetkazish, uning mazmun-mohiyatini tushuntirish, shubhasiz, ma'naviyat, ma'rifat, targ'ibot sohalarning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. To'g'ri, xalqimizning ko'pchiligi O'zbekistonda ro'y berayotgan ijoiy jarayonlardan xabardor. Shu bilan birga, ular mazkur o'zgarishlarning ijodkorlari ham hisoblanadi.

Afsuski, ayrim yoshlarimizning ijtimoiy tarmoqlardagi ko'ngilochar sahifalarga mahiyo bo'lib qolishi, beparvollikni, bilim pastligini oqibatida yurtimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qilish, zarur xulosalar chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lmayapti.

Buning jiddiy sabablari bor. Masalan, ayrim yoshlarimizning ijtimoiy faolsizligi, siyosiy-huquqiy madaniyat darajasining pastligi oqibatida O'zbekistonda barpo etilayotgan yangi jamiyat, demokratik, suveren, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy mamlakatni qurishning nazariyasi va amaliyoti kabi masalalar mazmun-mohiyatini anglashda no'noqlik qilmoqda. Bu esa ularning o'z hayotiy mo'ljallarini tanlashda, jamiyat va mamlakatdagi o'zgarishlar jarayonida faol ishtirok etishlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xo'sh, bugungi O'zbekiston yoshlarining bu masaladagi faoliyat qanday bo'lishi lozim? Nazarimizda, birinchidan, yoshlarimizda mavjud qonunchilikka itoat etish ko'nikmasini oshirish, insonning tartib-qoidalariga amal qilishga moyilligini kuchaytirish, shular asosida ularda demokratik jamiyat barpo etishning barcha huquqiy-me'yoriy talablarini hurmat qilish madaniyatini shakllantirish lozim. Ikkinchidan, inson o'zining ilmiy-intellektual darajasini o'z ma'naviy-axloqiy ko'nikmalari bilan uyg'unligini ta'minlashi kerak bo'ladi. Bu o'ta qiyin va murakkab masala. Ammo bu vazifani ado etmasdan turib, yangi jamiyatni aslo qurib bo'lmaydi. Mamlakat rahbari bejiz yangi jamiyatni eski tafakkur bilan qurib bo'lmaydi, demagan.

Biz bugun yangi O'zbekistonda barpo etar ekanimiz, yoshlarimizda qonunlarga so'zsiz itoat qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birga ularda o'z faoliyatini ma'naviy me'yorlar asosida tashkil etish masalasiga ham e'tibor berishimiz muhim. Gap jamiyat a'zolarining asta-sekinlik bilan "Qonunlar ustuvorligi" dan "Ma'naviylik ustuvorligi"ga o'tishi haqida ketmoqda. Shu narsani qat'iy ravishda aytish lozimki, aslida qonun ustuvorligi yuksak ma'naviyatli insonlardagina shakllanishi mumkin.

Ushbu ikki atamaning bir-biridan farqi shundaki, fuqarolik jamiyati barpo etilgani sari insonning butun faoliyatida ma'naviy omillar asosiy rol o'ynay boshlaydi. Insonning komillik sari tashlagan har bir qadami uning Konstitutsiya, mavjud qonunchilikka mutlaqo amal qilishda namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, "Qonun ustuvorligi" biz uchun qanchalar zarur bo'lsa, unga amal qilishning yagona yo'li sifatida "Ma'naviylik ustuvorligi" ham shunchalar muhim. Yana bir bor qayd etish lozimki, mavjud qonunlarga amal qilishning eng samarali vositasi insonning ma'naviylik sifatlariga bevosita bog'liq.

Beshinchidan, ma'naviyat bizga ayrim e'tiqodi sust, ijtimoiy jihatdan beg'am yoshlarimiz ma'naviy olamini shakllantirish va ularni "arosatda"da qolish xavfidan qutqarish uchun kerak. Barchamizga ma'lumki, barkamol inson tarbiyasi, ayniqsa, yoshlar ma'naviy qiyofasini shakllantirish, ular qalbidagi yaxshilik, ezuqlik, millat va Vatanga mehr qo'yish sifatlarini shakllantirish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bemaqsad, samarasiz, "shunchaki" o'kazilayotgan tadbirlar foydadan ko'ra, ziyon keltirishni isbotlashning hojati yo'q. Buni barchamiz bilamiz.

Ammo ma'naviyat-rifiy ishlar samaradorligini oshirishga xalaqit qilayotgan bir narsa borki, uni bugun e'tirof etish lozim. Gap fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga, ular qalbidagi yaxshilikka oshnoqlik sifatlarini uyg'otishda mavjud holat va aniq vaziyatni yaxshi anglab yetmayotganimiz haqida ketmoqda. Shu ma'noda, mamlakatimiz yoshlarining har bir hududiy birlik uchun alohida ma'naviy-mafkuraviy xaritasini yaratishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz.

Ushbu shartli "xarita"da yoshlarimizning yosh xususiyatlarini, qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari o'z ifodasini topgan bo'lishi muhimdir. Bunday xaritani tuzishda, nazarimizda, sotsiologik so'rovnomalarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Masalan, qaysi yoshda Alisher Navoiy asarlarini o'qish va ularni qay tarzda talqin qilish haqida o'y yamas va uni kexsa-yu yoshga bir xil tarzda "targ'ib-tashviq" qilar ekanimiz, o'z maqsadimizga yeta olmaymiz.

Yoshlar qalbi shakllanayotgan qalb hisoblanadi. Shakllanish jarayoni to'g'ri belgilanmas ekan, bunday vaziyatda insonning virtual dunyoga kirib qolish ehtimoli juda katta. Virtual dunyoda inson qalbidagi halali to'la anglab yetilmagan qandaydir g'ayratibiy, g'ayrioddiy o'zgarishlar ro'y beradi, undaylarda turli tubanliklarga tushish erkinlik sifatida qabul qilinadi. Eng yomoni, virtual dunyoda inson ma'naviy javobgarlik va ijtimoiy mas'ullikni his etmaydi.

Hozirgi sharoitda ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga tushib qolishi, ularning real dunyodan ajralib qolayotganliklarining ikki sababi bor, deb o'ylaymiz. Birinchidan, undaylar o'zining mustaqil ma'naviy qiyofasiga ega emas. Natijada "chet" dagi barcha narsalar, hattoki feyk "ma'lumotlar" ham "jozibadorligi" tufayli ularni o'ziga tortadi, natijada bunday yoshlar asta-sekin real dunyodan oyog'i uzilganini his qilmaydi. Ikkinchidan, bunday toifaqdagilar o'zini o'zi rivojlantirishga ehtiyoj sezmaydi, birovlariga ko'ra-ko'ra ergashuvchanlik, moslashuvchanlik kayfiyati ustuvorlik qiladi. Ular o'zlarining mavjud holatidan qoniqish hisol qiladi. Bunday holat aslida rivojlanishdan to'xtashdan boshqa narsa emas.

Ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga tushib qolishdan asrash, qalбини yaxshilik, ezuqlik urug'larini bilan to'ldirish uchun, ularni margenalik holatidan chiqarish kerak. Margenalik — ayrim shaxs yoki guruhning jamiyatda muayyan ijtimoiy uruk, tabaqa, qatlamga mansub bo'lmasdan "checkada", "oraladgi" qolishidir.

Boshqacha aytganda, margenalik holatida u yoki bu shaxs "arosatda" qoladi. Jamiyat, oila, mahalla ta'siridan chiqish esa margenalik holatiga tushgan shaxsda beparvollik, uquvsizlik, ijtimoiy hayotdan begonalashuvni yuzaga keltiradi. Bunday holatga tushgan shaxsning asosiy "xususiyati" jamiyat muammolariga befarqlik, sustlik, tevarak-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga daxldorlik hissining susayishi, qarorlar qabul qilishda no'noqlik va hafsalasizlikda ko'rinadi. Bundaylarni qalbi shikastlanganlar, deiysh ham mumkin. Bu esa jamiyat uchun xavfli.

Ana shunday salbiy vaziyatlardan yoshlarimizni qutqara oladigan yagona qudratli kuch — ma'naviyat hisoblanadi. Tarbiyada aniqlik zarur. Buning uchun, yuqorida ta'kidlaganimiz kabi tarbiyalanuvchiga aniq ma'naviy tashhis qo'yish lozim. Biz bugun eng aziz va muqaddas bo'lgan mustaqillik bayramimizni nishonlar ekanimiz, hech shubhasiz, o'tgan o'ttiz ikki yil davomida erishgan barcha yutuqlarimiz zamirida mamlakat rahbari tomonidan ma'naviyat sohasida aniq ishlab chiqilgan, ilmiy asoslangan ustuvor yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash zarur. Bu borada olib borilayotgan sa'y-harakatlar, so'zsiz, O'zbekiston jamiyatini yanada barqarorlashtiradi, mamlakatimizni dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadi. Bunga hech qanday shubha yo'q.

www.yuz.uz

yuz.uznews

NUQTAYI NAZAR

G'OYA

QO'SHIMCHA QIYMATLI, YUQORI DAROMADLI

MAHSULOT

Innovatsion tadbirkorlik iqtisodiyotni ilgama asoslangan holda rivojlantirishni ko'zda tutadi. Innovatsion tadbirkorlik uchun standart yo'nalishlar to'g'ri kelmaydi. Buning uchun izlanish lozim. Ayni zamonda qanday mahsulotga talab yuqori, uni muqobilardan arzon narxda taqdim eta olish yo'llarini izlab topish muhim. Innovatsion tadbirkorlik asosida yaratilgan mahsulot mahalliy va jahon bozorlariga mos bo'lishi kerak.

qarzdor sanalmaydi.

Jahon tajribasi ko'rsatadiki, innovatsiyani barcha birkdek qabul qilishni kutish kerak emas. Yangi yondashuv bo'lgani va bozorda sinovdan o'tmagani uchun tadbirkorlik subyektlari innovatsiyadan cho'chiydi. Sohadagi islohotlarning bosh maqsadi shu qo'rquvni yengib, bozor tamoyillariga moslashishni ta'minlaydigan metodlarni amaliyotga tatbiq qilishdir. Bunda venchur fondlar yordamga keladi. Fondlar startaplarga

farmonida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va ularni rivojlantirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, shuningdek, kapital bozorini takomillashtirish orqali moliyaviy resurslarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan startap ekotizimini rivojlantirish, loyihalarni ko'lab-quvvatlash maqsadida bir qancha tanlovlar e'lon

Olimjon TO'YCHIYEV,
Innovatsion rivojlanish agentligi direktori

Har qanday loyihani amalga oshirishda ishchi kuchi, energiya, sarmoyaning kam sarflanishi e'tiborga olinadi. Tabiiyki, biror yangi g'oya muallifi mana shu jihatlarni hisob-kitob qila olmasligi mumkin. Bu borada biznes akselerator dasturlarining ko'magi asqotadi. Ular rezidentlarga o'z biznes modelini "charxlash", zarur shartnomalarga ega bo'lish, savdoni amalga oshirishga ko'mak beradigan dasturni taklif qiladi. Yangi g'oya bilan kelgan izlanuvchilarga akselerator yordam berib, g'oyani loyihaga aylantirishga ko'maklashadi. Uning rostdan ham iqtisodiy samara berishi, iste'molchilarga naf keltirishi isbotlansa, startap loyiha sifatida shakllanadi.

Yoshlarni innovatsion tadbirkorlikka keng jalb qilish va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib kichik biznes loyihalarini amalga oshirishda tizimli mexanizmi joriy qilish maqsadida InnoX biznes inkubatori tashkil qilingan. Bu yoshlar g'oyalari kichik biznes loyihalariga (startap loyihalari) aylantirishga, mavjud kichik biznes loyihalarini esa o'qitish orqali rivojlantirishga qaratilgan dastur.

Mazkur inkubatorlarda yoshlarni innovatsion tadbirkorlikka o'qitish va o'z kichik biznesini yo'lga qo'yishi uchun 4 oylik o'quv kurslari tashkil qilinadi. Muvaffaqiyatli startap korxonaga egalari hamda xorijiy ekspertlar tomonidan yoshlarga hududlardagi muammo yechimiga qaratilgan bozorboq mahsulot tayyorlash, faoliyatini yo'lga qo'yish, mahsulot sotish, marketing bo'yicha saboq beriladi. Aniq natijaga qaratilgan startap loyihalar moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

Avvallari ilm-fan kishilari biror ilmiy ish, kashfiyot qilsa, uni tijoratlashtiradigan mexanizm qonunchilikimizda yo'q edi. Endi nafaqat biror soha yetakchilari, balki yoshlar ham g'oyalarni daromadli mahsulotga aylantiradigan yaxlit tizim yo'lga qo'yildi. Soha rivojiga qaratilgan e'tibor sabab ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga yo'l ochildi. Davlatimiz rahbarining "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni bilan innovatsion g'oyalari va startap ekotizimini ko'lab-quvvatlash infratuzilmasini yaratish maqsadida "UzVC" milliy venchur fondi tashkil etilgani soha rivojida muhim omil bo'ldi.

Startaplarni rivojlantirish uchun mablag' ajratadigan bunday moliyaviy muassasalar g'oyaning mahsulotga aylanishi, shu bilan birga, jahon bozorlariga chiqishiga ham xizmat qilmoqda. Har bir startapning istiqbolli yoki aksinchaligini tahlil qilish uchun investorda yetarlicha bilim bo'lmasligi mumkin. Venchur fond investitsiyalardan kapital yig'adi va uni istiqbolli loyihalarga sarflaydi. Eng asosiysi, bu jarayonda loyiha mualliflari



sarmoya kiritgandan so'ng ular bilan faol muloqot qila boshlaydi. Bozor strategiyasini o'rganib, biznes modellarni ishlab chiqadi. Shuningdek, resurslardan foydalanishni nazorat qilib, mahsulotning bozorga tez kirishini ta'minlaydi.

Olim biror loyihani ishlab chiqib, uning iqtisodiy samaradorligini isbotlansa bas. Uni



mahsulotga aylantirish uchun yillab sarson bo'lmaydi. Tadqiqot o'tkazish, mahsulotning ilk namunasini yaratish uchun biror korxonaga eshigida sarg'aymaydi. Puxta o'yilangan tizim bois, barchasi tartib bilan ketma-ket amalga oshaveradi. Joriy yilning o'tgan davri maybonda venchur fondlar tomonidan o'tibgacha yaqin startap loyihaga investitsiya kiritiladi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi

qilingan. Joriy yilning birinchi yarim yilligida jami 100 ga yaqin loyiha moliyalashtirishga tavsiya etildi. Startap ekotizimini targ'ib qilish hamda ishtirokchilarning loyihalarni shakllantirishga oid bilimlarini oshirish maqsadida "Parvoz" va "Startup Pitstop" dasturlari amalga oshirib kelinmoqda.

Masalan, oqshoq, ya'ni mayda sinqi guruchdan yuqori qiymatli mahsulot tayyorlash loyihasini olaylik. Sirdaryolik tayyorlari uni un holiga keltirib, so'ngira yana butun don ko'rinishida qayta ishlashdi.

Mana shu birgina yangicha yondashuv sabab uning qiymati bir necha barobar oshadi.

Bunday yondashuvlar geologiya sohasida ham yuqori samara beradi. Hozirgi vaqtda tarkibida nikel bo'lgan chiqindilarning gidrometallurgiya usuli bilan qayta ishlanadi. Ushbu usul chiqindilarda nikel miqdori 7,5 foizdan kam bo'lmagan taqdirda rentabel hisoblanadi. Mazkur jarayonda ko'p miqdorda kimyoviy reagentlar sarflanadi va o'z-o'zidan qattiq, suyuq hamda gazsimon chiqindilarni zararsizlantirish muammosi paydo bo'ladi. Yaqinda moliyalashtirilgan startap loyiha kimyoviy reagentlardan foydalanmasdan, tarkibida kamida 1,05 foiz nikel bo'lgan chiqindilarni ham qayta ishlash imkonini beradi. Natijada sanoat korxonalarida to'planadigan chiqindilarni qayta ishlash hamda eksportbop va ichki bozorda talab yuqori bo'lgan yangi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil tadbirkorlik bilan ochiq muloqotida kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuv joriy etilishi, soha vakillarini tadbirkorlikka o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sherkatlar topish bo'yicha yaxlit ekotizim yaratilishi ta'kidlandi. Shu maqsadda tashkil etilgan Biznesni rivojlantirish banki tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashadi. Yangi loyihalarga zarur mutaxassislar jalb qilinadi. Tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlari ko'rsatadi. Bu "tesha tegmagan" loyihalarni amalga oshirish, nafaqat mahalliy, balki jahon bozorlaridan ham munosib o'rin egallash istagidagilar uchun katta imkoniyat. Shuningdek, ilmiy natijadorlikni yanada yuqori pog'onaga olib chiqadi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda yunikom, ya'ni kapitalizatsiyasi 1 milliard dollardan oshgan startaplar trend darajasiga chiqqan. O'zbekistonda ham aynan shunday startaplar bo'lishiga ishonamiz. Boisi, soha rivojiga qaratilgan islohotlar tobora jadallashyapti.

TASHABBUSLI BUDJET

Abdurauf QORJOVOV,
sharhlovchi

Bu naqlni "Tashabbusli budjet"ning ayni paytdagi jarayoniga nisbat sifatida keltirish mumkin. Chunki shu kunlarda uning ikkinchi mavsumidan joy olgan loyihalarga ovoz berish boshlandi va

bu jarayon 16-sentabrga qadar davom etadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi matbuot xizmatining xabar berishicha, galdagi mavsumda respublika bo'yicha 9 ming 426 ta mahalladagi infratuzilmaning yaxshilanishi uchun jami 49 ming 464 ta taklif kelib tushgan hamda ulardan 33 ming 631 tasi ovozga ko'yilgan. Ushbu takliflar uchun tuman (shahar) budjetlari hisobidan 1,2 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilishi ko'zda tutilgan. Lekin bu miqdor ham oxirgi chegara emas. G'olib loyihalar soni yanada oshishi mumkin.



G'ALVIR SUVDAN KO'TARILADIGAN PALLA

Zero, davlatimiz rahbarining shu yil 10-apreldagi "Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni ko'lab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga binoan, 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib bo'lmagan 1 ming 309 ta loyiha ham moliyalashtiriladigan bo'ldi. Shunday qilib, birinchi mavsum uchun 2 ming 997 ta g'olib loyihaga budjet hisobidan jami 2,8 trillion so'm yo'naltirilishi belgilandi.

Hozirgi paytda hududiy infratuzilmani rivojlantirish rejalarini bilan birga, "Ochiq budjet" loyihasining "Tashabbusli budjet", "Mening yo'lim" yo'nalishlari orqali fuqarolar ilgari surgan takliflar va ularga ovoz berish natijalari asosida ko'plab

Bu jarayonlar 2019-yildan buyon Iqtisodiyot va moliya vazirligining "Ochiq budjet" portalidagi "Tashabbusli budjet" bo'limi orqali amalga oshirib kelinayapti. Ushbu elektron tizim yordamida fuqarolar mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, xiyobonlar, bolalar va sport maydonchalari, ichki yo'llar qurish, bog'cha, maktablarni ta'mirlash va jihozlash kabi masalalar bo'yicha loyihalarni taklif etib, ovoz berish yo'li bilan mahalliy budjetning taqsimlanishida ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratilgan.

Hayotning o'zi "Tashabbusli budjet" loyihasini yanada kengaytirishni kun tartibiga qo'yimoqda. Chunki bu tizim orqali hozirgi paytda

Odamlarni qiynab kelayotgan muammolarni ko'proq hal etish maqsadida 2023-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjeti qo'shimcha mablag'larining 30 foizi ham fuqarolar fikri asosida yo'naltiriladigan bo'ldi. Bungacha bunday talab faqat tuman-shaharlar budjetiga taalluqli edi. Endi mahalliy budjetlar tomonidan ajratilgan qo'shimcha pul hisobiga 1,7 trillion so'm Fuqarolar tashabbusi jamg'armalariga o'tkaziladi.

ijtimoiy muammolar hal etib kelinmoqda.

Bu yil mahallalarga ajratilayotgan mablag' ko'lami 25 trillion so'mga yetkazilishi, "Tashabbusli budjet" dasturi doirasida budjetdan o'tgan yildagicha qaraganda 3,5 barobar ko'p, jami 8 trillion so'm yo'naltirilishi ko'zda tutilgan. Shundan 2 trillion so'm "Tashabbusli budjet" jarayoni uchun tuman va shahar budjetlarida rejalashtirilgan, 320 milliard so'm "Mening yo'lim" loyihasi doirasida tuman va shahar budjetlaridan ajratilishi, 4 trillion so'm jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari uchun mo'ljallangan.

Odamlarni qiynab kelayotgan muammolarni ko'proq hal etish maqsadida 2023-yildan boshlab **Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjeti qo'shimcha mablag'larining**

aholining eng dolzarb muammolarini o'rganishga yordam beradigan "Ochiq ma'lumotlar bazasi" shakllanyapti. Bu joylarda mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishda amaliy yo'l xaritasi" vazifasini o'tashi mumkin.

Prezidentimizning o'tgan yil 24-oktyabrda "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq, 2023-yildan boshlab "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida "Ochiq budjet" axborot portali orqali ovoz berish yo'li bilan aniqlanishi nazarda tutilgan.

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri o'rinbosari Jalol Arashovning qayd etishicha, ovoz berish jarayoni har yili noyabr-dekabr oylarida o'tkaziladi.



30 foizi ham fuqarolar fikri asosida yo'naltiriladigan bo'ldi. Bungacha bunday talab faqat tuman-shaharlar budjetiga taalluqli edi. Endi mahalliy budjetlar tomonidan ajratilgan qo'shimcha pul hisobiga 1,7 trillion so'm Fuqarolar tashabbusi jamg'armalariga o'tkaziladi.

Har biri 20 kuni qamrab olgan amaldagi "Tashabbusli budjet" talabiga ko'ra, uning dastlabki bosqichida fuqarolar o'z takliflarini ilgari surishdi, ikkinchisida mazkur takliflar moderatsiyadan o'tkazildi, ya'ni saralandi. Uchinchisida saralangan takliflar ovoz berishga qo'yildi. Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko'ra, har bir hududda eng ko'p ovoz to'plagan takliflar g'olib topiladi va ular berilgan ovozlar sonidan kelib chiqib yuqoridan pastga qarab saralab olinadi hamda loyihaga mo'ljallangan mablag'dan kelib chiqqan holda moliyalashtiriladi.

Taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo'yicha bitta loyiha paketi shaklida ovozga qo'yiladi. 1-noyabrga qadar davlat budjetining tasdiqlangan ko'rsatkichlari asosida, hududlar bo'yicha yo'naltiriladigan kapital qo'yilmalar tuman va shaharlardagi aholi, mahallalar soniga nisbatan teng ulushlarda, lekin 8 milliard so'mdan kam bo'lmagan holda ajratiladi.

Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish va ular uchun ovoz berish jarayonlari uchta bosqichda tashkil etiladi:

1-bosqichda — portaldagi loyihalar to'plami shakllantiriladi;
2-bosqichda — shakllantirilgan loyihalar to'plami saralab olinadi;
3-bosqichda — saralash bosqichidan o'tgan loyihalar to'plamlariga ovoz beriladi.

"Mening yo'lim" loyihasi ham ishga tushirilgan. O'tgan yildan boshlab tuman va shaharlar budjeti parametrlarida



OpenBudget
O'zbekiston Respublikasi
"Ochiq Budjet" Portali



Sherxon bobo

IZLARIN IZLAB...

31-AVGUST — QATAG'ON QURBONLARINI YOD ETISH KUNI

Xizmatkordan chiqqan boy

Yorqo'rg'on Namangan viloyatining Uychi tumanidagi qadimiy qishloq. Uning markazida Qambarali boy masjidi joylashgan. Kayvonlarning ayitishicha, yetim yigit Qambarali shu qishloqda bir boyning xizmatkori bo'lgan, haloligi, mehnatkashligi uchun boy uni o'ziga kuyov qilib olgan.

Yillar o'tishi bilan Qambarali mehnati, tadbirkorligi, qolaversa, qaynotasining ko'magi bilan katta ekin dalalari, paxta zavodi, chorvaga ega bo'ldi. Kambag'alparvarligi, yoshi ulug'larni, ilm ahllarini hurmat qilishi, marosimlarda boy va faqirlarni teng ko'rishi, saxiy, bag'rikengligi bois, diyonatli inson deb nom qozonadi.

Taqdir izn so'ramaydi

Qambaraliboy birinchi ayolidan bir o'g'li bo'ldi, ismini Sherxon qo'yadi, biroq ayolidan boshqa zurriyat ko'maydi. Keyin u qishloqdan Rislig'oy ismli qizni nikohiga oladi. Ular 4 qiz — Achaxon, Habibaxon, Karimaxon, Otikaxon hamda 4 o'g'il — Abdulkarim, Ahmadali, Sadbarali, Abdurahimjon ismli farzandlarni voyaga yetkazadi. Qambaraliboy farzandlarini ziyoli, g'ayratli, yaxshi insonlar qilib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratadi. To'ng'ich farzandidagi iqtidorni ko'rib, uni Namangan madrasasida, keyin Buxorodagi Mir Arab madrasasida o'qitadi.

Sho'rolar hukumati tuzilib, mulkdorlarga hujum boshlangach, boy o'ziga tegishli yerlarning bir qismini xizmatkorlariga beradi. Uning qolgan yer-mulki, zavodlari tortib olinib, o'zi ayoli Rislig'oy va farzandlari bilan Uchqo'rg'on cho'lilariga ko'chiriladi. Bir kuni Qambaraliboy qishloqda hovlisida qolgan katta o'g'li Sherxon bilan bo'lgan o'g'li, o'g'liga:

— Sen faqat ilm berish bilan shug'ullanyapsan, senga davlat hech nima qilmaydi, chunki sen boy emassan, ko'nglingni bo'lmay, oilang bilan shu yerda yashab, xotirjam ishlayver, — deydi. Keyin xayrlashib qishloqdan chiqib ketadi. Uning keyingi taqdiri noma'lumligicha qoladi.

Mulla Sherxon o'z davrining yetuk din peshvosi bo'lib, arab, fors tillarini mukammal bilgan, fiqh, tafsir va hadis ilmini egallagan ulamo, nufuzli shaxs hisoblangan. Ayoli Adolatxon bilan Inoyatxon, Nurmatjon, Hamidjon, Saodatxon, Yaqubjon va G'ulomjon (u go'dakligida vafot etgan) — ikki qiz, to'rt o'g'il farzandni voyaga yetkazgan.

Surgun

Qambaraliboy bir kechada daraksiz ketgach, 1931-yili sovet hukumati uning o'rniga o'g'li mulla Sherxonni oilasi bilan va uchinchi o'g'li Ahmadalini Ukrainaga surgun qiladi. Quloq qilinganlarning barchasini vagonlarga joylab, Ukrainaning Nikolayev va Xerson oblastlariga olib kelishadi. Mulla Sherxon oilasi Xerson oblastining Skadovskiy rayonidagi qishloqqa joylashadi.

Mulla Sherxon tashabbusi bilan yuqori tashkilotlarga talabnoma yoziladi. Talabnomaga ko'ra, 1-10-sinfilar uchun o'zbek maktablari ochiladi. Shu yerda ham chaqimchilar bo'lib, "Mulla Sherxon nikoh o'qiydi, bolalarga yashirincha diniy bilim beradi", degan chaquv bahonasida oila boshlig'ini tez-tez so'roqqa chaqirib turishadi.



Hamidjon va traktorchi kuyov Hojiahmad muhim vazifani o'tayotganlar qatorida urushga olinmaydi. Keyinchalik ular O'zbekistonga ketishadi. Nurmatjon esa Uchqo'rg'on urushga yuboriladi.

Qishloq front ichida qoladi. Yashab turgan uylari oldida okoplar qaziladi, ishga yaroqli jon borki, qoplariga qum to'ldirish, undan devor yasash bilan shug'ullanadi. 1942-yilning kuzida nemislar qishloqni to'la egallaydi. 1943-yilga kelib, nemislar chekinayotib, atrofi vayronaga aylantirishadi. O'shanda "Yosh qizlarni Germaniyaga olib ketar ekan", degan gap tarqaladi. Shunda bechora ona 15 yoshli qizi Saodatxonni o'n olti kun o'rada saqlaydi. Fashistlar ketgach, ko'plab odamlar ular tashlab ketgan granata, minalar tufayli halok bo'ladi.

Alg'ov-dalg'ovli damlar

O'zbeklar o'sha yerda ham yer bilan tillashib, dehqonchilik qiladi. Bug'doy, kartoshkadan mo'l hosil olib, paxta yetishtirishni yo'lga qo'yadi. Oilaning katta qizi Inoyatxon dalada ishlaydi, Hojiahmad ismli traktorchi yigitga turmushga chiqadi. Inoyatxon o'ta shijoatli, ishing ko'zini, rus



tilini yaxshi bilgani uchun ayollar brigadasiga rahbar etib tayinlanadi. Keyinchalik Ukraina Oliy Soveti deputatligiga saylanadi.

Adolatxonning kenja o'g'li G'ulomjon Ukrainada tug'ildi, lekin oilaga quvonch bag'ishlagan go'dak omiga umr ko'rib, olamdan o'tadi. Yana bir o'g'li Yaqubjon 9 yoshida muzda yiqilib, oyog'i sinadi, doktor yo'qligi tufayli uning o'zi davolashi natijasida bolaning suvayi noto'g'ri bitib, cho'loq bo'lib qoladi.

Keyin ikkinchi jahon urushi boshlanadi. O'sha kunlarda "Hamma o'z yurtiga ketarkan", degan xabar tarqaladi. Barcha qatori Adolatxon oilasi ham yo'l tadorigini ko'rib, ne azobda tiklagan mulklarini shundayligicha tashlab yo'lga tushadi. Oblast markazidagi vokzalga kelishganda oiladagi erkaklarga O'zbekistonga jo'natiladi, qolganlar esa orqaga qaytadi degan xabar eshitishdi. Poyezd jo'nashiga yarim soat qolgan. O'shanda mushtipar onalarning, qiz-u kelinlarning faryodi olamni tutadi, Nurmatjon zo'rg'a xayrlashib, poyezdga ulguradi. Adolatxon dod soladi, o'sha yerdagi harbiy kishi osmonga o'q otib baqirgach, yig'ilganlarning shovqini o'chadi.

O'n olti kun o'rada

Oila qaytib kelsa, lo'ililar uylarni talagan, hamma yoq vayrona, eshik, oynalar singan... 1941-yil 22-iyunda nemislar sovetlar hududiga bostirib kiradi. Erkaklar jangga safarbar etiladi. O'sha damda maktab-internatni endigina tugallab, shu yerda direktorlik qilayotgan

Alam o'tgach...

...O'tgan asrning 80-yillari boshlarida Nurmatjon akaning to'ng'ich farzandi Tursunboyini davlat xavfsizlik qo'mitasiga ishga taklif etishdi-yu, ishga olishmaydi. Chunki yosh, g'ayratli, hamma chig'irliqlardan o'tgan yigitning tarjimai holda "xalq dushmanining nevarasi" degan tamga bor edi. Hujjatlar rasmiylashtirildi, subhatlar bo'ladi, ammo nega ishga olinmagani sir tutiladi. Nurmatjon aka suvanchig'i bo'lib qolgan to'ng'ichining ichini alam tiraganini his qildi-yu, beaybligini isbotlashga bel bog'laydi.

Taqdirning og'ir sinovlaridan o'tgan urush qatnashchisi, xalq ta'limi fidoyisi yana to'siqlarga uchraydi. Shunday bo'lsa-da, otasi "quloq qilingan" joylarga xat, ariza, so'rovnomalar yozishdan charchamaydi. Yozishmalar Rossiyaning o'lis Uxta shahridan tortib, Ukrainaning Xerson oblastiga yuboriladi. Nihoyat u Xerson oblast sudi raisi V.I.Jadananekodan quyidagi xatni oladi.

"1886-yili O'zbekiston Respublikasi Namangan shahrida tug'ilgan Qambaraliboy Sherxon hisbga olingunga qadar Xerson oblast, Skadovskiy rayonidagi 1-paxtachilikka ixtisoslashgan sovxoz ishchisi bo'lgan va shu yerda istiqomat qilgan, 1937-yil 16-sentabrda unga nisbatan Odessa NKVD qoshidagi "uchlik" tomonidan chiqarilgan hukmni Xerson oblast sudi o'zining 1979-yil 19-noyabrda qarori bilan reabilitatsiya qilgan".

Qariyb uch yil mobaynida tegishli idoralardan kelgan javoblardan yana shu narsa ayonlashdiki, uning otasi Sherxon Qambaraliboy 1943-yil 6-avgustda vafot etgan, Komi ASSR, Pechora shahridagi "Nagibni" qabristoniga dafn etilgan ekan.

O'shanda 1980-yil 17-iyun edi, — deya xotirlaydi Tursunboy aka. — Buvim Adolatxon ayuning vafotiga 20 kun bo'lgan. Dadam birdaniga otasi yashagan, vafot etgan joylarga borishni xohlab qoldi. Bu yoqda marosimlarni o'tkazib, qo'lizim ham kaitalashgan. Ziyoratni biroz keyinga surishni so'radim. Biroq yuzlarida tabassum bilan "O'g'lim, lotereyanga "Zaporojets" chiqqan, shuning pulini olib kelsang safga ham bemaol yetardi-da", deb qoldi. Xudoning berganini qarang. Keyin Rustamjon ukam bilan yo'lga o'tlanishdi. Qariyb bir oy davomida Ukrainaning Xerson oblasti Skadovskiy rayonida bo'lib, bobom yashagan joylar, qo'ni-qo'shni bo'lgan odamlar bilan subhatlashib, olam-olam taassurotlar bilan qaytishdi. Pechora shahridagi bobom dafn etilgan qabrdan bir siqib tuproq olib kelishdi.

Uyga kelgach, Nurmatjon aka hamma qarindoshlarini jamlab, bitta avtobusda bobosi va otasi yashagan Uychi tumanidagi Yorqo'rg'on qishlog'iga borishadi. Mulla Sherxonning qabridan olib kelgan tuproqni kirdik qoni to'kilgan joyga qo'shishdi.

Bosh omon bo'lsa...

Ommaviy surgunlar, qatag'on, yurtdan-yurtga ko'chirib, bevaton qilishlar sobiq sho'ro tuzumi mafkurasining asosi edi. Ularning "qora daftar" ro'yxatiga kiritilgan Sherxon otadek ilmiy, ziyoli, tadbirkor kishilar ana shunday qiynoqlarga uchragan, uzoq yurtlarga surgun qilingan.

Zamonlar o'zgarib, Sherxon Qambaraliboy avlodlari Uchqo'rg'on unib-o'sib, o'zod va obod yurtda yashamoq baxtiga ham erishdi. Nurmatjon aka "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoni, qizi Ozodaxon "Shuhrat" medali, o'g'li Tohirjon "Do'stlik" ordeni, Hasanboy Otavaliyev "E'l-yurt hurmati" ordeni, Nurdinjon Ismoilov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist" unvoni bilan taqdirlandi.

Ha, bosh omon bo'lsa, yaxshi-yomon kunlar o'taveradi. Riziqni mehnati bilan topib, el orasida hurmatga sazovor bo'lganlarga har qancha havas qilsak, arziydi, albatta. Ana shunda tinchlikning, ozodlikning qadri yanada ortaveradi.

Azizaxon AMIRHAMZAYEVA,
(Sherxon Qambaraliboyning nabirasi),
Jahongir TO'XTASINOV,
jurnalist

SHUKUH

O'ZLIGINGNI TASDIQ ETDING BU JAHONGA

YANGI O'ZBEKISTONNING YANGICHA QIYOFASI 12 TA PLAKATDAN IBORAT MUHTASHAM TO'PLAMDA AKS ETTIRILDI



Abdumajid AZIM,
shoir

"Ming eshitgandan bir ko'rgan afzal" degan naql hammamizga yaxshi tanish. Chindan ham, har bir narsani o'z ko'zining tomonidan soha mutaxassislari bilan hamkorlikda qariyb ikki yil davomida tayyorlangan plakatlarga to'plami yuqoridagi so'zimizning tasdiqidir. Ushbu plakatlarga so'ngi yillarda Vatanimizda yuz bergan ulkan evrilish va o'zgarishlarni bamosoli ko'zga singari o'zida aks ettirdi. Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga hissa qo'shish — Yaratganning o'zi bizga bergan tarixiy imkoniyatdir" degan so'zlar butun majmuaga epigraf bo'libgina qolmay, ayni paytda barcha plakatlarda mazmun-mohiyatini yanada boyitadigan, suratlariga o'zga cha ma'no bag'ishlaydigan hikmatga aylangan.

To'plamdan joy olgan 12 ta plakatning har birini "Yangi O'zbekistonning yangicha qiyofasi"ni ko'z-ko'z etuvchi alohida asarga mengzash mumkin. Binobarin, mavzular tanlanishini inobatga oladigan bo'lsak, ularda Vatanimiz ravnaqining o'n ikkita ustuni o'zini namoyon etib turibdi. Masalan, ikkinchi plakat mamlakatimiz bo'ylab keng qulov yoygan "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyilning amaliy natijalarini namoyon etgani holda, el-yurt uchun sadoqat bilan xizmat qilishdan hech qachon toliqmaslik, charchamaslikka da'vat etadi.

Ulug' shoirimiz Abdulhamid Cho'ponning "Adabiyot yashasa, millat yashar!" degan so'zlariga ushbu dorilamon zamonda chinakamiga jon ato etildi. Poytaxtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan Yangi O'zbekiston majmuasi deymizmi, yoki tom ma'noda "Xalq yuragiga aylangan Adiblar xiyobonini eslaymizmi, ayniqsa, hududlarda ustoz shoir-yozuvchilarimiz omiga atab bunoyd etilgan ijod maktablarida o'qiyotgan tiyrak o'g'il-qizlarimizni ko'z o'ngimizga keltiramizmi, barchasida "Biz yangi O'zbekistonda yetuk ma'naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantiramiz", degan umummilliy g'oyaning ifodasini ko'ramiz.

"Yoshlar — Uchinchi Rennessans bunyodkori", "Sport — barkamol avlod, yorqin kelajak asosi", deb nomlangan 4-va 5-plakatlarda ham yosh avlod va yangi O'zbekiston tushunchasi uzviylik va mushtarakligi namoyon bo'ladi. Haqiqatan, kelajakda yuksak ma'rifati jamiyat barpo etishni maqsad qilgan ekanimiz, bungi boradigan yo'l, albatta, yoshlar siyosati, ta'lim-tarbiya va sportga e'tibor orqali o'tishi muqarrardir. Najot — ta'limga, najot — tarbiyada, najot — bilimda ekanligi, barcha ezuq maqsadlarga shular orqali erishilishi kudek ravshan.

Oltinchi va yettinchi plakatlarda jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi bo'lgan innovatsiya va iqtisodiyotga, qishloq xo'jaligi tarmoqlariga bag'ishlangan. Agrar, sanoat, ishlab chiqarish sohalari aslida shunchaki mahsulot ishlab chiqaruvchi jabha emas, aksincha, pirovard natija sifatida elimiz dasturxonini noz-ne'matlarga to'ldiruvchi, xalqimiz farovonligini ta'minlovchi sohalardir.

Jadal iqtisodiy o'sish natijasida yaratilgan moddiy qiymatlar nafaqat bugungi kun, balki farzandlarimiz kelajagiga sarmoya hisoblanadi.

"Yangi O'zbekistonni sog'lom millat barpo etadi", degan gapda chuqur mazmun mujassam. Sog'liqni saqlash tizimida yuksak samaradorlikka erishgan ilg'or mamlakatlar qatoridan joy olish strategik vazifalarimizdan biriga aylangani sir emas. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar faqat tibbiyot sohasidagi yig'ilanishlar, eng zamonaviy uskunalar bilan ta'minlangan shifoxonalar ochish, o'lis qishloq va ovullarda aholiga sifati tibbiy yordam ko'rsatiladigan tarmoqlarni shakllantirish bilan cheklanmaypti. Bunda, ayniqsa, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va sport bilan ommaviy ravishda shug'ullanish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida urg'u berilayotgani sog'lom millat va jamiyatni yaratishdek ezuq niyatga tezroq yetishda muhim omil bo'ladi.

Mahalla milliy an'ana va qadriyatlarimizni asrovchi o'ziga xos qo'rg'on bo'lib, bu institut ming yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelgani bilan bu uchun bebaho qadriyat hisoblanadi. Mahallani Vatan ichra vatan, milliy a'mollar beshigi desak, ayni haqiqatni ayrgan bo'lamiz. Bugun mamlakatimizda mahalla tizimining fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi rolini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilayotgani boisi ham shunda. Birgina misol, "Tashabbusli budget" loyihasi hududlardagi obodlikka xizmat qilish bilan kifoyalannay, balki mahalladoshlar, qishloqdoshlar ahli-noqligi yanada mustahkamlanishda muhim omil bo'lmoqda. Mahalla bundan keyin ham tinchlik va osoyishtalik poydevori, ahillik va hamjihatlik, ma'rifat va tarbiya qo'rg'on bo'lib qolaveradi.

Mamlakatimizdagi ochiqlik siyosati tufayli yurtimizning xalqaro miqyosda obro' e'tibori kun sayin oshib bormoqda. Mintaqada vaziyat tubdan ilqilashganini faqat o'zbek xalqigina emas, balki qo'shni davlatlar aholisi ham o'z hayotlarida chuqur his qildi. Ko'plab ekspert va tahlilchilar bunda Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi muhim rol o'ynaganini e'tirof qilmoqda. Umumplanetar miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida, mintaqaviy darajada Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiya davlatlar tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar faoliyati misolida, ko'pgina mamlakatlar bilan esa ikki tomonlama manfaatli aloqalar amalga oshirilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, maqsadimiz — hamkorlik, tinchlik va taraqqiyotdir.

O'n birinchi plakat mavzusi "Vatan himoyasi — sharafli va muqaddas burch" deb nomlanadi. Darhaqiqat, mustaqil mamlakatni ko'z qorachig'idek himoyalash har bir O'zbekiston fuqarosining sharafi burchidir. Jahondagi vaziyat kundan-kun jiddiyashib, turli mintaqalarda urush olovi yonib turgan bir paytda Vatan va xalq xavfsizligi, tinchligi hamda osoyishtaligini saqlash ustuvor vazifaligicha qoladi. Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar yurtdoshlarimizga emin-erkinlik, xotirjamlik va ertangi kunga ishonch bermoqda, desak adashmaymiz.

Ne baxtki, jahonga ko'z-ko'z qiladigan madaniyatimiz, tariximiz va betakror tabiatimiz deb bunday imkoniyatlar hamma davlatlarda ham mavjud emasligini aytmasak ham bo'ladi. Shu ma'noda, turizmga yangi O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri sifatida qaralmoqda. Albatta, sohaning moddiy qiymat yaratishdagi salohiyati nihoyatda muhim va salmoqli. Turizmni rivojlantirish, chet ellik sayyohlarni yurtimizga ko'proq jalb etish bir jihatdan biznes bo'lsa, ikkinchi tomondan, jahon ahlini milliy qadriyatlarimiz, shonli tariximiz hamda boy madaniyatimiz bilan tanishtirish hisoblanadi. Ya'ni ma'naviy ma'no kasb etadi.

"Yangi O'zbekistonning yangicha qiyofasi" aks etgan 12 ta plakatdan iborat muhtasham majmuva mazmun-mohiyati, tabiiyki, ma'naviyat deb atalmish ulug' tushuncha atrofida mujassamlashadi. Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi ham ma'rifati jamiyat barpo etishdir.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Qabulxon: (71) 233-56-33

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-846. 43690 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15